

A COMPARATIVE ANALYSIS OF POLITENESS STRATEGIES BASED ON THE SEMANTICS OF UNCERTAINTY IN JAPANESE AND UZBEK COMMUNICATION

Nadira KHALMURZAEVA

PhD, Associate Professor

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent city, Uzbekistan

YAPON VA O'ZBEK TILLARIDAGI MULOQOTDA NOANIQLIK SEMANTIKASI ASOSIDA SHAKLLANUVCHI XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING QIYOSIY TAHLILI

Nadira XALMURZAYEVA

PhD, dotsent

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТРАТЕГИЙ ВЕЖЛИВОСТИ, ФОРМИРУЮЩИХСЯ НА ОСНОВЕ СЕМАНТИКИ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ В ЯПОНСКОМ И УЗБЕКСКОМ ОБЩЕНИИ

Надира ХАЛМУРЗАЕВА

PhD, доцент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан nadira_xalmurzayeva@tsuos.uz ORCID ID 0009-0003-6652-7454

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Xalmurzayeva N. Yapon va o'zbek tillaridagi muloqotda noaniqlik semantikasi asosida shakllanuvchi xushmuomalalik strategiyalarining qiyosiy tahlili. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 4. — B. 70-86

<https://doi.org/10.36078/1710323115>

Received: June 18, 2025

Accepted: August 17, 2025

Published: August 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. This article presents a linguo-pragmatic analysis of politeness strategies implemented through the semantics of uncertainty in Japanese and Uzbek languages. Particular attention is paid to mitigating words and expressions that are deliberately marked by ambiguity or vagueness in order to maintain politeness during interaction. The study examines the use of such linguistic means in both languages, providing concrete examples and revealing their pragmatic functions. A comparative analysis was conducted to identify both the similarities and differences between softening expressions in the two languages. The research is grounded in Brown and Levinson's theory of "face," Lakoff's politeness principles, and the Japanese linguistic concept of wakimae. The syntactic models, semantic load, and communicative functions of these pragmatic tools are thoroughly examined. Similar to Japanese communicative norms, Uzbek also employs politeness strategies such as silence, sentence ellipsis, and indirectness, though such forms occur less frequently and are typically restricted to culturally conventional contexts. The findings demonstrate that in both languages, fixed constructions that convey uncertainty and indirectness serve as key linguistic mechanisms for mitigating face-threatening acts. However, in Japanese, these strategies are expressed through more systematic and stable linguistic forms, whereas in Uzbek, they tend to emerge contextually and vary

depending on the communicative situation. The article concludes with illustrative examples and comparative tables highlighting cross-linguistic and intercultural pragmatic features.

Keywords: politeness; uncertainty; semantic mitigation; pragmatic function; Japanese language; Uzbek language; indirect speech; comparative analysis.

Annotatsiya. Maqolada yapon va o'zbek tillarida noaniqlik semantikasi orqali amalga oshiriladigan xushmuomalalik strategiyalari lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Xususan, muloqot jarayonida xushmuomalalikni ta'minlash maqsadida ataylab noaniqlik yoki ikki ma'nolilik yuklangan holda ishlatiladigan yumshatuvchi so'z va iboralarga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada yapon va o'zbek tillarida bunday til vositalarining qo'llanishi aniq misollar asosida o'rganiladi hamda ularning pragmatik vazifalari yoritiladi. Har ikki tildagi yumshatuvchi til birliklarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil o'tkazildi. Tadqiqot Brown va Levinsonning "yuz" nazariyasi, Lakoffning xushmuomalalik tamoyillari, shuningdek, yapon tilshunosligidagi "wakimae" konsepsiyasi asosida olib boriladi. Mazkur strategiyalarning sintaktik modellari, semantik yuklamalari va pragmatik funksiyalari batafsil ko'rib chiqilgan. Yapon tilidagi muloqot etiketi bilan o'xshash ravishda, o'zbek tilida ham ba'zan sukut saqlash, jumlani to'liq yakunlamaslik yoki mazmunni bilvosita ifodalash orqali xushmuomalalikni ta'minlash mumkin. Biroq bu kabi strategiyalar o'zbek tilida nisbatan kamroq qo'llanadi va ko'proq an'anaviy muloqot kontekstlari bilan cheklanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda ham noaniq va bilvosita turg'un konstruksiyalarni ifodalash shakllari suhbatdosh yuziga tahdidni kamaytirishda muhim lingvistik vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, yapon tilida ushbu strategiyalar tizimli va barqaror lisoniy shakllar orqali namoyon bo'lsa, o'zbek tilida ular ko'proq kontekstga va kommunikativ vaziyatga bog'liq holda yuzaga chiqadi. Maqola yakunida ikki tilga oid misollar va jadval asosida o'xshashliklar, tafovutlar hamda madaniyatlararo pragmatik xususiyatlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: xushmuomalali; noaniqlik; semantik yumshatish; pragmatik funksiya; yapon tili; o'zbek tili; bilvosita gapirish; qiyosiy tahlil.

Аннотация. В статье проводится лингвопрагматический анализ стратегий вежливости, реализуемых через семантику неопределённости в японском и узбекском языках. В частности, особое внимание уделяется смягчающим словам и выражениям, намеренно нагруженным неопределённостью или двусмысленностью высказывание с целью обеспечения вежливости в коммуникации. В статье рассматриваются конкретные примеры использования таких языковых средств в обоих языках и раскрываются их прагматические функции. Сравнительный анализ был проведён с целью выявления как сходств, так и различий между смягчающими конструкциями двух языков. Исследование опирается на теорию «лица» Брауна и Левинсона, принципы вежливости Лакоффа, а также концепцию «вакимаэ» в японском языкознании. Подробно рассмотрены синтаксические модели, семантические нагрузки и прагматические функции указанных стратегий. Аналогично японскому речевому этикету в узбекском языке также в отдельных случаях реализуется вежливость посредством умолчания, неполных высказываний или косвенной передачи

смысла. Кроме того, в статье рассматривается использование эвфемизмов, риторических и косвенных форм, неполных высказываний и стратегического умолчания как механизмов сохранения речевой вежливости. Однако подобные стратегии в узбекской речи используются реже и, как правило, ограничены традиционно-контекстуальными ситуациями общения. Результаты исследования показывают, что в обоих языках устойчивые конструкции, выражающие неопределённость и косвенность, служат важным лингвистическим инструментом минимизации угрозы лицу собеседника. При этом в японском языке данные стратегии представлены более системно и устойчиво, тогда как в узбекском языке их реализация во многом зависит от контекста и коммуникативной ситуации.

Ключевые слова: вежливость; неопределённость; семантическое смягчение; прагматическая функция; японский язык; узбекский язык; косвенная речь; сравнительный анализ.

Kirish

Har bir tilda xushmuomalalik, nazokatlilik va ehtirom bilan munosabatda bo'lish uchun turli strategik usullar mavjud bo'lib, ular orasida noaniqlik semantikasi muhim o'rin tutadi. Boshqacha qilib aytganda, gapni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita yoki ikki ma'noli tarzda ifoda etish orqali so'zlovchi o'z so'zi ta'sirini yumshatadi, suhbatni bahsli yoki qo'pol ko'rinish olishidan saqlaydi [Cianci 2017: 27].

Masalan, yuzga tahdid (FTA – face-threatening act) mavjud bo'lgan vaziyatlarda shaxslar to'g'ridan-to'g'ri rad etish yoki talab qilish o'rniga, turli noaniq ifodalar bilan o'z iltimos yoki rad javobini yumshatib ifoda etishi mumkin. Bunday usullar nafaqat individning “yuzi”ni saqlash, balki muloqotdoshning ham obro'-e'tiboriga putur yetkazmaslik uchun xizmat qiladi.

Yapon va o'zbek xalqlarida tarixan hurmat-odob qoidalari muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Yapon tilida muloqot etiketining nozik qoidalari mavjud bo'lib, ko'pincha gapni ochiq aytmalik, boshqani ko'nglini og'ritmaslik uchun turli evfemizmlar va ikki ma'noli iboralar qo'llaniladi. O'zbek madaniyatida ham kattalarga hurmat, kechirim so'rashda xushmuomalalik, rad javobini bildirishda yumshoq uslub tanlash kabi odatlar bor. Masalan, o'zbekcha etiketda suhbatdoshni ranjitmaslik uchun to'g'ridan “yo'q” demasdan, bafurja sababini tushuntirish tavsiya etiladi. Shu bois har ikki tilda ham “yumshatib gapirish” ko'p uchraydi, lekin uning vositalari va ko'lamlari har birining madaniyatiga xos tarzda farq qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi — yapon va o'zbek tillarida noaniqlik semantikasi orqali amalga oshiriladigan xushmuomalalik strategiyalarini qiyosiy tahlil qilish, har ikki tildagi yumshatuvchi ifoda vositalarini aniqlab, ularning pragmatik xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot doirasida avvalo umumiy nazariy asos — xushmuomalalik nazariyalari va noaniq ifodalarning vazifasi ko'rib chiqiladi. So'ngra alohida yapon va o'zbek tillarida xushmuomalalik uchun qo'llaniladigan bilvosita ifodalovchi strategiyalari tahlil etiladi. Maqolada har ikki tilga doir misollar keltirilib, yaponcha va o'zbekcha yumshatish usullari taqqoslanib, o'xshash va ularning farqli jihatlari yoritiladi.

Xushmuomalalik strategiyalarini tushuntirishda zamonaviy tilshunoslikda asosan pragmatika sohasi, ya'ni "Nutq xatti-harakatlari nazariyasi" va "Yuz" tushunchasi (face)ga doir nazariyalar muhim o'rin tutadi. Brown va Levinson tomonidan ilgari surilgan yuz nazariyasiga ko'ra, har bir shaxs muloqotda o'z ijtimoiy "yuzi"ni saqlashga harakat qiladi va muloqotdoshning ham yuziga putur yetkazmaslikka intiladi [Brown & Levinson 1987: 48]. Shu maqsadda so'zlovchi yuzga tahdid soluvchi xatti-harakat (masalan, tanqid, rad etish, talab) zarur bo'lgan holatlarda bevosita va qo'pol tarzda emas, balki yumshatib, turli chalg'ituvchi yoki noaniq ifodalar bilan aytgan holda tez-tez murojaat qiladi. Brown va Levinson xushmuomalalik strategiyalarini aniq, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita, ikki xil talqinga yo'l qo'yuvchi turlarga ajratadi. Xushmuomalalik strategiyalari qatoriga turli shaklda Grays hamkorlik prinsipiga zid ravishda tushunmoqqa mumkin bo'lgan ifodalar kiradi: masalan, ishoralar, ko'rsatmalar, mavzuni chetlab o'tish, hujjatsiz ma'lumot qoldirish, mubolag'a yoki kamsitish, ritorik savollar, tajniy (bir necha ma'noli) so'zlar va h.k. Bunday holda so'zlovchining illokuttiv maqsadi (aytmoqchi bo'lgan asl talabi yoki fikri) oshkora aytilmaydi, shu bois u birgina ma'no bilan bog'lanmaydi va har xil talqin etilishi mumkin – mas'uliyat esa tinglovchi zimmasiga o'tib, "o'zi tushunib olar" degan nazariya yuzaga keladi [Brown & Levinson 1987: 48].

Lingvistik adabiyotlarda xushmuomalalikning turli tamoyillari qayd etilgan. Masalan, R. Lakoff [Lakoff 1973] xushmuomalalikni uch tamoyilga ajratadi: (1) Rasmiylik – masofani saqlash; (2) Hurmat – ixtiyor berish; (3) Samimiylik – do'stona hislarni ko'rsatish. Birinchi tamoyilga ko'ra so'zlovchi masofani saqlab, rasmiy uslubda hurmat bildirishi mumkin; ikkinchisida esa u suhbatdoshga tanlash imkoniyatini qoldirib, bosim o'tkazmaydi (masalan, savol jumla yoki shartli shakllarda iltimos qilib, "bajar" demasdan "bajarsangiz bo'ladimi" deya murojaat qilish); uchinchi tamoyil do'stona yaqinlikni ifodalash orqali samimiy muhit yaratishni nazarda tutadi. Ammo turli madaniyatlarda bu tamoyillarning ahamiyat darajasi farq qilishi mumkin. Masalan, Lakoff ta'kidlashicha, ingliz tilli jamiyatda ikkilamchi savollar va ehtiyotkorlik bilan iltimos qilish ko'proq kuzatilsa, ba'zi jamiyatlarda to'g'ridan-to'g'ridan iltimos qilish afzal deb qaralishi mumkin [Lakoff 1975: 57]. Shuningdek, ba'zi madaniyatlarda sukut saqlash ham xushmuomalalik deb qabul qilinadi – masalan, yaponlar suhbat davomida zarur joyda gapirmaslik orqali ham hurmatni saqlashadi, bu holat ba'zi G'arb madaniyati vakillari uchun g'alati ko'rinsa-da, yapon etiketiga mos hisoblanadi.

Xushmuomalalik va yuzga tahdidni kamaytirish borasida noaniqlik, mulozamat va bilvositalikning o'rnini Cheng va Warren (2003) tadqiqotchilari alohida ta'kidlaganlar. Noaniqlik — ma'noni aniq aytmasdan, mulozamat bilan imo-ishora qoldirishga asoslangan turkum so'z va ifodalarni o'z ichiga oladi. Bunday noaniq ifodalar orqali so'zlovchi gapning kuchini pasaytiradi, zarur taqdirda uni inkor etish imkonini saqlab qoladi va mazmunni aniq bir qarorga bog'lamay, "qo'pollikka yo'l qo'ymaslik"ka erishadi. Masalan, ingliz tilida "next to impossible" (deganda "imkonsizga yaqin" ma'nosida) iborasi bevosita "imkonsiz" demay, biror narsani yumshatib baho berish uchun qo'llanadi. Bu kabi pasaytiruvchi qurilmalar orqali so'zlovchi tinglovchiga kuchli

talab yoki tanqid bildirmagan bo‘ladi [Farxadova 2024]. Xuddi shunday usullar yapon va o‘zbek tillarida ham mavjud bo‘lib, ular illokuttiv akt kuchini pasaytiradi. Ilmiy adabiyotda shunday yuzaki xushmuomalalik belgilari turli nomlar bilan ataladi: masalan, yapon tilshunosligida Ide (1982) ularni “vakimae” — madaniyatga xos tartib-qoidalarni anglab yetib, shunga muvofiq xushmuomala bo‘lish deb ta’riflasi, boshqa tadqiqotchilar “indeksal (ko‘rsatkich) belgilar” deb ta’riflaydilar [Ide 1989: 165]. Ko‘pincha bunday shakllar leksik ma’nosiga ko‘ra emas, balki kontekstda yuzaga keladigan qo‘shimcha ma’nosi orqali e’tirof etiladi, shu sababli ularni analiz qilishda mantiqiy-matnli tahlil talab etiladi.

Mazkur nazariy asosdan kelib chiqib, quyida yapon va o‘zbek tillarida xushmuomalalikni ta’minlash uchun qo‘llaniladigan noaniq iboralarni alohida tahlil qilamiz. Har bir til bo‘limida eng ko‘p uchraydigan yumshatuvchi ifoda turlari misollar bilan ko‘rsatiladi, ularning sintaktik shakli, semantik vazifasi hamda pragmatik funksiyasi, muloqotdagi amaliy xizmati tushuntiriladi.

Asosiy qism

Tahlil usullari. Yapon tili dunyoda xushmuomalalik darajasi yuqori tillardan biri sifatida tanilgan bo‘lib, unda turli darajadagi hurmatni ifodalovchi til birliklari (keygo – 敬語) dan oddiy suhbatda ham xushmuomalalikni saqlash uchun ishlatiladigan noaniq iboralargacha mavjud. Quyida yapon tilidagi keng tarqalgan ba’zi yumshatuvchi ifoda va usullar keltiriladi: Yapon tilida **かもしれない/かもしれません modal konstruksiyasi** o‘zbekcha “ehtimol” yoki “bo‘lishi mumkin” iborasiga to‘g‘ri keladi. Bu modallikni ifodalovchi iboralar ma’lumotning aniq emasligini bildirib, har qanday da’voni yumshatib ko‘rsatadi. Masalan,

“遅れるかもしれません” – “*U kishi kechikishi mumkin*”. Bunda so‘zlovchi kechikishi aniq bo‘lishini bilsa ham, **かもしれません** qo‘shimchasi orqali o‘z so‘ziga noaniqlik kiritadi, bu esa xushmuomalalikka xizmat qiladi — chunki to‘g‘ridan “kechikadi” demasdan, go‘yo taxmin tarzida aytgan bo‘ladi. **Kamoshirenai** konstruksiyasi ko‘pincha gap oxirida kelib, oldingi aytilayotgan fikrni kuzatuvchi hulosa yoki taxminga aylantiradi. Pragmatik jihatdan, bu jumladagi ma’lumotga bo‘lgan ishonchsizlikni ko‘rsatadi va shu orqali tinglovchiga nisbatan xushmuomalalik, qo‘pollikka o‘rin qoldirmaslik vazifasini bajaradi. Masalan, yapon rahbari xodimiga “Ertaga uchrashuvda qatnasha olmayman” demoqchi bo‘lsa, “明日の会議には出席できないかもしれません” deb aytishi mumkin – bevosita rad javob emas, balki “*ertaga majlisda qatnasholmasligim mumkin*”, ya’ni ehtimol shaklida yumshatilgan xabar [Diegoli 2024: 427–453].

Yapon tilida bahsli yoki tasdiq jumla aytilganda, uning rost yo yolg‘onligiga nisbatan tinglovchida ziddiyat uyg‘otmaslik uchun so‘zlovchi o‘z fikrini shaxsiy nuqtayi nazar sifatida taqdim etadi – bunda “**と思います** (to omoimasu – deb o‘ylayman)“ **degan subyektiv modal konstruksiyasi** jumla oxirida qo‘shib aytiladi. Masalan, to‘g‘ridan “これは

正しくない” -”bu to’g’ri emas” deyilsa, bu keskin chiqishi mumkin; uni yumshatish maqsadida “これは正しくない と思います” – “*bu to’g’ri emas deb o’ylayman*” tarzida aytilishi kerak. Bunda so’zlovchi o’z nuqtayi nazarini bildiriyapti, shu bilan birga tinglovchiga boshqacha fikrda bo’lish imkonini ham qo’yapti. ...と思います – subyektiv modal konstruksiya bo’lib, semantik vazifasi ma’lumotni *shaxsiy fikri* sifatida ko’rsatishdir. Pragmatik funksiyasi esa murosa va xushmuomalalikni bildiradi. So’zlovchi o’z so’zining mas’uliyatini biroz cheklab, “bu shunchaki mening fikrim” degandek taassurot qoldiradi, shu bois u bilan kelishmaslik tinglovchi uchun osonroq kechadi. Yapon tadqiqotchilari ta’kidlashicha, bunday shaxsiy mulohaza ko’rinishidagi gaplar suhbatdosh “yuziga” zarar yetkazmaslikning samarali vositasidir [Rinnert, Kobayashi 1999: 1173–1201].

Savol-hol shaklidagi iltimos va takliflar berish usuli: Yapon etiketida biror kishidan xizmat so’rash yoki taklif qilishda bevosita buyruq yoki ko’rsatma berishi qo’pollik sanaladi. Shu sabab, ko’pincha savol shaklidagi jumlar ishlatiladi. Masalan, “～してくれませんか” -... *qilib bera olmaysizmi?*” yoki “～はいかがですか” - “... *qanday bo’larkin?*” kabi. Birinchi holda, masalan, “ドアを閉めてくれませんか” – “*Eshikni yopib qo’ya olmaysizmi?*” bu to’g’ridan to’g’ri “eshikni yoping” demasdan, iltimosni savol tarzida qilib xushmuomalalik bilan ifoda etiladi. Bunda grammatik jihatdan fe’lning -て ravishdosh shaklidan keyin *くれませんか* yordamchi fe’lning inkor savolli shakli qo’llaniladi. Bunday konstruksiyaning semantik vazifasi – iltimosni bilvosita, ehtimol shaklida bildirish, pragmatik jihatdan vazifasi esa buyruqning yuzga tahdidini kamaytirishdir. Quyidagi “～たらどうですか” yoki “～はいかがですか” – bevosita taklif yoki maslahat berishda qo’llanadigan yumshatuvchi konstruksiyadir. Masalan, kishi kasal bo’lganda “医者に行ったらどうですか” – “*Shifokorga borsangiz qanday bo’larkan?*”, deya maslahat beriladi. Bu yerda ham to’g’ridan-to’g’ri “*boring*” demay, fe’lning shart mayli shaklidagi konstruksiya yordamida fikr so’ralmoqda [Hasegawa 2017: 223–248].

“...ですが/けれども” – jumlaning “lekin” bilan tugatish strategiyasi.

Yapon tilida muloyim rad etish yoki boshqa bir xushmuomalalikni talab etuvchi holatda jumlaning oxirida tugallamay, “lekin...” degandek yumshoq tugatish usuli mavjud. Masalan, biror taklifni rad etish kerak bo’lsa, shaxs “行きたいんですが...” – “borgim keladi-da, lekin...”, — deb gap boshlashi mumkin. Jumla to’liq aytilmagan, lekin davomi kontekstdan kelib chiqib tushunib olinishi lozim. So’zlovchi ma’lum sabablar tufayli borolmasligini xushmuomalalik bilan ifodalayapti. Bu usulning sintaktik vazifasi yakuniy bog’lovchi “が/けれども” konstruksiyasi orqali jumlaning nomuqarrar qoldirish, semantik vazifasi gap mazmunini ochiqchasiga emas, qisman bildirishdir. Ushbu konstruksiyaning pragmatik funksiyasi esa –

muloqotdoshga rad etish yoki norozilikni yumshoq qabul qilish imkonini qoldirishdan iborat. Ya'ni tinglovchi davomini o'zi tushunib oladi, so'zlovchi esa o'ziga noqulay bo'lgan "yo'q" so'zini ishlatmaydi. Bunday strategiya yapon tilida juda keng tarqalgan bo'lib, manbalarda u **"inkor qilishning bilvosita usuli"** sifatida ta'riflangan [Rinnert & Kobayashi 1999: 1173-1201].

Yuqorida sanab o'tilgan ifoda usullaridan tashqari, yapon tilida obyekt yoki subyekt tushirib qoldirish ya'ni ellipsis orqali ham yumshatish tez-tez uchraydi. Masalan, xushmuomalalik yuzasidan, agar so'zlovchi o'zining xohishi yoki e'tirozini bildirmoqchi bo'lsa, u shu holatda subyekt sifatida "men" deyishdan saqlanib, fe'lni III shaxs shaklida yoki umumlashma (impersonal) shaklda qo'llanilishi mumkin. Yapon tilida jumlada shaxs olmoshlarini aytish shart emasligi bois, "～したいと思います" deb aytganda so'zlovchining o'zini ham tinglovchi o'rniga qo'yib umumiy ifodalanadi. Natijada adresant *anonimlashadi* va tinglovchiga kuchli ta'sir ko'rsatmaydi. Masalan, kimnidir ishida xatolik bo'lsa, to'g'ridan "noto'g'ri qildingiz" demay, "少し考え直した方が良いかもしれません" – *"ehtimol bir oz qayta o'ylab ko'rgan ma'quldir"* kabi xushmuomalalik bilan tanqid aytilishi mumkin. Quyida o'zbek tilidagi shu kabi strategiyalar ko'rib chiqiladi.

1-jadval

**Yapon tilidagi noaniqlik konstruksiyalarining
semantikasida yumshatuvchi vositalar**

Ifoda	Sintaktik model	Semantik vazifa	Pragmatik funktsiya
～ちょっと + V	Sifat +V	Miqdorni kamaytirib ko'rsatish "bir oz..."	Illokutiv kuchni yumshatish, muloyimlik bilan rad etish
...かもしれません	Jumla oxirida modal fe'l (ehtimol)	Xabarni noaniq yetkazish, taxmin qilish	Gap mazmuniga ishonchsizlik kiritib, hukmni muloyimlashtirish
～...と思います	Gap oxirida "o'ylayman" degan ergashtiruv	Fikrni shaxsiy mulohaza qilib berish	Da'voni yumshatish, "mening fikrim" tarzida taqdim etish
～てくれませんか	Fe'lning -te shakli + inkor shakldagi yordamchi fe'l + savol qo'shimchasi	Iltimosni savol tarzida bildirish	Bevosita buyruqdan qochish, ixtiyorlikni o'zida qoldirish
～たらどうですか	Fe'lning shart mayli shakli + savol qo'shimchasi	Maslahat/taklifni ehtiyotkorlik bilan shart mayli shaklida ifoda etish	Tinglovchini erkin qaror olishga undash, muloyim maslahat

...が (ですか)	Jumla tugashidan oldin “lekin...”	Jumlani to‘liq qilmay qoldirish	Rad etish yoki e’tirozni bilvosita ifoda etish
～行くけど/行くけれども	Jumlada subyekt/obyektni aytmaslik	Kim haqida gap ketayotganini noaniq qoldirish	Shaxsning noma’lumligini, xushmuomalalikni saqlash
～すみませんが	Kechirim so‘rab, bog‘lovchi bilan to‘xtash	Rad etish oldidan uzr bilan boshlash	Rad javobini yumshatish / tinglovchi kontekstga qarab anglashi

O‘zbek tili va nutq madaniyati ham azaldan odob-axloq qoidalari, kattaga hurmat kichikka izzat bildirish kabi tushunchalarga asoslanib rivojlangan. Xususan, **xushmuomalalik** — bir-biriga nisbatan iliq munosabat saqlash va muloqotda hurmat ko‘rsatish – o‘zbek jamiyatida muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi [Qjsimova 2020: 47]. Shu bois, o‘zbeklar muloqotida ham turli yumshatuvchi va bilvosita ifoda usullari tez-tez uchraydi. Quyida o‘zbek tilida xushmuomalalikni aks ettiradigan asosiy noaniq/yumshoq ifodalar va strategiyalar misollar bilan tahlil qilinadi:

O‘zbek tilida balki va ehtimol kabi taxminiy so‘zlari biror xabar yoki talabni muloyimroq ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Masalan, biror kishidan yordam so‘rashda to‘g‘ridan “shunday qil” demasdan, “balki shunday qilsak bo‘lar?” deb aytish mumkin. Bunda balki so‘zi gap boshida kelib, uning ma’nosini *noaniq* va *taklifiy* tusga kiritadi. Semantik vazifasi — xabarni ishonchsiz, taxmin tariqasida ko‘rsatish; pragmatik vazifasi esa tinglovchiga bevosita buyruq yoki qat’iy talab emas, balki tavsiya yoki iltimos berilganini his ettirishdir. Masalan, “Balki, kechroq kelarsiz?” — bu yerda so‘zlovchi suhbatdoshdan kechroq kelishini so‘rayapti, biroq balki bilan boshlab, bunday qilish faqat bir taklif ekanini ko‘rsatyapti. Xuddi shuningdek, ehtimol so‘zi bilan: “Ehtimol, bu vazifani ertaga bajarsak, yaxshiroq bo‘lar” — ya’ni “ertaga qilsak, yaxshiroq bo‘lsa kerak”. Shu tariqa so‘zlovchi muloqotda xushmuomalalikni saqlagan holda o‘z fikrini bildirmoqda. Bunday modal so‘zlar orqali rad javobini ham yumshatib aytish mumkin: “Ehtimol, bu ishlar bilan men shug‘ullanmasam yaxshi bo‘lar edi” — bevosita “men qilmayman” demasdan, ehtimol shaklida izhor qilinmoqda.

O‘zbek tilida biror ishning natijasi yoki aytilayotgan gapning darajasini noaniqlashtirish uchun “-ishi mumkin”, “-sa kerak” kabi qo‘shimchalar yordamida “... bo‘lishi mumkin / kerak” – mavhum modal konstruksiyalar hosil qilinadi. Masalan, “*Tez orada yangilik e’lon qilinishi mumkin*” — bu yerda “*mumkin*” so‘zi ma’lumotni noaniq ko‘rsatib, so‘zlovchi bu xabarga to‘liq javobgar emasligini bildirib turadi. Xuddi shuningdek, “-sa kerak” — ehtimol ma’nosini beradi: “*Kelsa kerak*” / “*keladi, deb o‘ylayman*” kabi modal shakllar semantik jihatdan gapga axborot noaniqligini qo‘shib, pragmatik jihatdan xushmuomalalik yoki ehtiyotkorlikni bildiradi. Ayniqsa, katta yoshliga yoki yuqori lavozimli odamga nisbatan to‘g‘ridan tanqid yo talab bilan chiqmaslik uchun, o‘z

fikrini “-sa kerak” bilan yumshatib aytish odatiy hol. Masalan, yosh mutaxassis katta tajribali hamkasbiga: *“Bu yerda bir xato bor, deb o‘ylayman”* deyish o‘rniga, *“Bu yerda bir xato bo‘lgan bo‘lsa kerak”* deb yumshoqroq fikr bildirishi mumkin. Bu bilan u o‘z fikrini sal yumshatgan, aniq hukm shaklida aytmasdan, taxmin tarzida bildirgan bo‘ladi [Qjsimova 2020: 47]. Yapon tilidagi “と思います” ga o‘xshash tarzda, o‘zbek tilida ham so‘zlovchi bahsli yoki keskin fikrni bildirishda uni “Menimcha, fikrimcha, o‘ylashimcha” kabi shaxsiy mulohaza sifatida taqdim etishi xushmuomalalik belgisi sanaladi. “Menimcha”, “o‘ylaymanki”, “nazdimda” kabi kirish so‘zlar shu maqsadga xizmat qiladi. Masalan, to‘g‘ridan “Bu to‘g‘ri emas” degandan ko‘ra, “Menimcha, bu unchalik to‘g‘ri emas” deya aytilsa, muloyimroq chiqadi. Menimcha so‘zi semantik jihatdan *subyektivlikni*, shaxsiy fikr ekanini ko‘rsatadi; pragmatik jihatdan esa tinglovchiga bahslashish imkonini qoldiradi, chunki so‘zlovchi o‘z fikrini bildiriyapti, xolos. Shu bois, bunday ifoda ziddiyatli vaziyatlarda tinchlikni saqlashga yordam beradi. Mulozamatda ham “menimcha/o‘ylaymanki” jumla boshida kelib, gapning shiddatini pasaytiradi. Masalan, rahbar xodimiga tanqid aytmqchi: *“Sizning hujjatingizni menimcha, bir oz diqqat bilan qayta ko‘rib chiqish kerakdir”* — bevosita “noto‘g‘ri qilgansiz” demasdan, xushmuomalalik bilan ifoda qilanadi.

O‘zbek tilida biror buyruq yoki iltimosni muloyimroq ifoda etish uchun shart mayli shaklidagi konstruksiyalardan foydalanish mumkin. “Agar ... bo‘lsa, yaxshi bo‘lar edi” yoki “...sangiz bo‘larmidi” kabi. Masalan, mehmonga choy taklif etishda: “Choy ichasizmi?” deyish mumkin, lekin bu o‘zbeklar madaniyatida qo‘pollik sanaladi. “Choyga keling?” yoki “Choy iching, marhamat” kabi muloyim shaklda ifoda etish mumkin. Ba’zi hollarda esa shart maylidagi konstruksiyalar nafaqat xushmuomalalik, balki ehtirom ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi: “Agar vaqtingiz bo‘lsa, maslahatingiz kerak edi” — ya’ni to‘g‘ridan “maslahat bering” demay, shartli tarzda iltimos bildirilgan. Shart mayli shaklidagi konstruksiyalarning semantik vazifasi, ya’ni “guyoki shart bajarilsa, yaxshi bo‘lardi” kabi hadikli shart tarzida murojaat qilish, pragmatik funksiyasi – buyruq ohangini yumshatish, suhbatdoshga chiqish yo‘lini qoldirish mumkin. Iltimos shaklida eng tez-tez uchraydigan konstruksiya: O‘zbek tilida muloyim iltimos va so‘rovlarni ifoda etish maqsadida “-b bersangiz, yaxshi bo‘lar edi” konstruksiyasi keng qo‘llaniladi. Masalan: “Hujjatlarni ko‘rib chiqib bersangiz, yaxshi bo‘lar edi” iborasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq ma’nosini bermasdan, shartli-xohish tarzida, muloyim iltimos sifatida ifodalangan.

Yanada yumshoq va muloyim uslubda so‘rov bildirish uchun “-sangiz bo‘lar edi” qolipi o‘rniga “-sangiz” yoki “iloji bo‘lsa” kabi ifodalar masalan: “Iltimos, mumkin bo‘lsa, hujjatlarni ko‘rib bersangiz” tarzida ham qo‘llaniladi.

O‘zbek nutq madaniyatida bevosita rad javobi berish o‘rniga, muloyimroq va bilvosita usullar orqali inkor ifodalash an’anaviy tarzda qabul qilingan. Xususan, “yo‘q” so‘zini to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llash o‘rniga uni yumshatuvchi shaklda ifoda etish orqali muloqotdagi munosabatlar muvozanati saqlanadi.

Biror ishni bajarish imkoniyati yoʻqligini bildirish zarur boʻlgan hollarda ham, toʻgʻridan-toʻgʻri “Men bunga qodir emasman” deyish oʻrniga, xushmuomalalik bilan kechiktirish yoki alternativ taklif shaklida javob berish odatiy hol hisoblanadi. Masalan: “Balki biroz kechroq bajarsam boʻladimi?” kabi ifoda orqali rad etish muloyim tarzda amalga oshiriladi.

Bunday uslub rad javobini ham yuzni saqlash, ham muloqotdagi ijobiy munosabatlarni saqlab qolish maqsadida qoʻllaniladi. Pragmatik jihatdan bevosita emas, bilvosita inkor etish orqali suhbatdoshning ehtirosi saqlanadi va muloqotning iliq muhiti taʼminlanadi.

Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanidan misol keltirsak, unda Yusufbek hoji oʻgʻli Otabekka bevosita qoʻpollik qilmay, mulloyimlik bilan maslahat beradi: “Oʻgʻlim, bu ishning foydasidan zarari koʻproq boʻlishi mumkin. Yaxshisi, bu haqda yana bir oʻylab koʻr” [Abdualilova 2025]. Bu yerda ota “boʻlmaydi” demagan, balki shu ishning zarari koʻproq ekanini taʼkidlab, yaxshisi qayta oʻylashni tavsiya qilgan. Bu yerda rad etish bevosita amalga oshirilmagan boʻlsa-da, masalani qayta koʻrib chiqishga chaqirish orqali yuzni saqlash strategiyasi ishlatilgan. “Yaxshisi” soʻzi semantik jihatdan “eng maʼqul variant” maʼnosini ifodalab, pragmatik jihatdan muloyim tavsiya tarzida qabul qilinadi.

Oʻzbek tilida “yaxshisi”, “maʼqulrogʻi”, “maqsadga muvofiq” kabi ifodalar orqali muloyim shaklda rad etish amali koʻp uchraydi. Bunday ifoda vositalari muloqotda ham madaniy meʼyorlarga rioya qilishni, ham ijtimoiy yuzni saqlashni taʼminlaydi.

Iltimos yoki taklifni muloyim tarzda ifoda etishning muhim usullaridan biri — savol shaklidan, ayniqsa inkor shaklidagi savol konstruksiyalaridan foydalanishdir. Bunday shakldagi murojaatlar toʻgʻridan toʻgʻri buyruq yoki talab emas, balki muloyim taklif sifatida qabul qilinadi.

Negativ savollar semantik jihatdan xolis axborot berishdan koʻra, muloyim taklif yoki iltimos qilishga xizmat qiladi; pragmatik nuqtayi nazardan esa ular suhbatdoshga ortiqcha bosim oʻtkazmasdan rozilik olish vositasi sifatida faoliyat koʻrsatadi.

Shuningdek, ritorik savollar ham xushmuomalalik strategiyasida muhim oʻrin tutadi. Masalan, “Shunday qilmaslik mumkinmi?” kabi ritorik savol aslida “Albatta shunday qilish kerak” degan maʼnoni bilvosita ifoda etadi. Bunday savol xarakterli tarzda tinglovchiga toʻgʻridan toʻgʻri koʻrsatma berish oʻrniga uni maʼnoni mustaqil anglashga undaydi, natijada suhbatda xushmuomalalik va oʻzaro tushunish muhiti yaratiladi.

Oʻzbek tilida xushmuomalalik strategiyasi sifatida noqulay yoki toqatsiz mazmunli soʻzlarni bevosita aytmasdan, evfemizmlardan foydalanish keng kuzatiladi. Bunday hollarda qoʻpol yoki ogʻir maʼnoga ega soʻzlar oʻrniga yumshatilgan, madaniy muloqot meʼyorlariga mos soʻz va iboralar qoʻllaniladi. Masalan, “oʻldi” feʼli oʻrniga “vafot etdi” yoki “dunyodan oʻtdi” iboralari, shuningdek, “yolgʻon gapiryapsan” degan qoʻpol soʻz oʻrniga “adashayotgandirsiz” yoki “xatoga yoʻl qoʻyyapsiz” kabi yumshatilgan shakllar qoʻllaniladi.

Evfemizmlarning semantik vazifasi qoʻpol yoki ogʻir taʼsir etuvchi soʻzlar oʻrniga muloyimroq iboralar orqali muloqot mazmunini ifoda

etishdan iborat bo'lsa, pragmatik jihatdan ular suhbatdoshda salbiy emotsional reaksiya yuzaga keltirmaslikka xizmat qiladi. Evfemizmlar deyarli har bir tilda uchraydigan umumiy pragmatik mexanizm bo'lsa-da, o'zbek tilida ular ayniqsa kattalar bilan muloqotda va rasmiy vaziyatlarda o'ta muhim rol o'ynaydi.

Masalan, bir qarorni noto'g'ri deb baholash zarur bo'lgan hollarda to'g'ridan to'g'ri "Bu qaror noto'g'ri" deb aytish o'rniga, muloyim tarzda "Bu qarorni, nazdimda, qayta ko'rib chiqish lozim" degan ifoda qo'llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yapon tilida bo'lgani kabi, o'zbek tilida ham ba'zi hollarda sukut saqlash yoki jumlani davom ettirmaslik orqali xushmuomalalik ifodalanishi mumkin. Biroq bu holat o'zbek tilida kamroq uchraydi. O'zbek madaniy an'anasida suhbatdoshga o'z fikrini ochiq ifoda qilishi, zarurat tug'ilganda hatto rad etishi ham muayyan darajada qabul qilingan. Biroq bunday rad etish ham odob va hurmat me'yorlari doirasida amalga oshirilishi lozim.

Masalan: *"Taklifingiz uchun rahmat, ammo afsuski, bu yili ishtirok eta olmayman. Balki keyingi safar."* jumla kabi biror kishining taklifini rad etishda xushmuomala shakl quyidagicha namoyon bo'ladi: avval minnatdorlik bildiriladi, keyin rad etish sababi muloyim shaklda ifoda qilinadi va oxirida umid yoki boshqa imkoniyat ifodalanadi. Bunday jumlada bir nechta yumshatuvchi elementlar mavjud: minnatdorlik bildirish (taklif va e'tibor uchun hurmat), afsus ifodalash (rad etishni yumshatish), va kelajakka umid bildirish (suhbatdosh bilan munosabatni saqlab qolish). Natijada bevosita "yo'q" demasdan, xushmuomalalik va hurmat me'yorlarga muvofiq rad javob taqdim etiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ifoda vositalari o'zbek nutqiy etiketining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi va ijtimoiy hamjihatlikni saqlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, o'zbek nutqida hatto salbiy mazmunli jumlar ham mumkin qadar yumshoq va muloyim shaklda ifoda etiladi. Shu bilan birga, ba'zi vaziyatlarda, ayniqsa jonli muloqotda, aniq va to'g'ridan ifoda qilish holatlari ham kuzatilishi mumkin.

2-jadval

O'zbek tilidagi noaniqlik konstruksiyalarining semantikasida yumshatuvchi vositalar

Ifoda	Sintaktik model	Semantik vazifa	Pragmatik funksiya
balki / ehtimol	Gap boshida modal so'z	Xabarning noaniqligini, ikkilanishni ta'kidlash	Iltimos yoki da'voni muloyim qilish
... -ishi mumkin	Fe'l + mumkin	Hodisa taxminligini bildirish	Gapni ishonchsizlashtirish orqali xushmuomalalikka erishish
... -sa kerak	Fe'lning shart mayli + "kerak"	Taxmin, ehtimolni ifoda etish	Qat'iylikni kamaytirish, muloqotdoshga qarshi chiqmaslik
menimcha /	Gap boshida	Fikrni	Diqqatni o'z fikriga

o‘ylaymanki	mulohazaviy kirish so‘z	shaxsiy nuqtayi nazarga aylantirish	qaratish, tinglovchini inobatga olish
agar ... bo‘lsa (edi)	Shart mayli turg‘un iborasi	Holatni shartlarga bog‘lash “egar shunday bo‘lsa”	Iltimos/buyruqni bilvosita ifodalash, to‘g‘ridan talab qilmaslik
...sangiz bo‘lar edi?	Fe‘lning shart mayli + “bo‘lar edi” savol	Iltimosni hurmat bilan savol shaklida berish	Suhbatdoshga tanlov qoldirish, buyruq emas, iltimos qilish
yaxshisi / ma‘qulrog‘i	Jumla boshida baholash so‘zi	Eng maqbul variantni ko‘rsatish (maslahat)	Bevosita tanqid yoki rad o‘rniga maslahat orqali yetkazish
... - maysizmi?	Hozirgi zamon inkor + savol	Taklif yoki iltimosni savol tarzida bildirish	Bevosita buyruqdan qochib, muloyim iltimos qilish
tibbiy evfemizmlar	Qo‘pol so‘z o‘rniga yumshoq so‘z va iboralar	So‘zning noqulay mazmunini yengillatish	Tinglovchini ranjitmaslik, odobni saqlash

Yapon va o‘zbek tillarida xushmuomalalik umumiy kommunikativ vazifalarni bajarsa-da, ularning amalga oshirish mexanizmlari va qo‘llanish darajalari o‘rtasida muayyan farqlar mavjud. Yuqorida keltirilgan jadvallar tahlili shundan dalolat beradiki, har ikki tilda ham gapni bilvosita shaklda ifodalash xushmuomalalikni ta‘minlashning universal usuli hisoblanadi. Masalan, iltimosni savol shaklida ifoda etish, yapon tilida *-masen ka*, o‘zbek tilida *-maysizmi* yoki rad etish o‘rniga xushmuomalalik bilan tavsiya berish, yapon tilida *それはちょっと...*, o‘zbek tilida “*yaxshisi...*” singari usullar deyarli bir xil pragmatik vazifani bajaradi. Bu holat, Brown va Levinson (1987) nazariyasiga muvofiq, inson kommunikatsiyasidagi umumiy qonuniyatlarning turli madaniyatlarda ham namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi.

Biroq yapon va o‘zbek tillarida xushmuomalalikni ta‘minlovchi ifodalar turi va ularning nutqdagi qo‘llanish o‘rni o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Yaponiyada aymay (曖昧) na xyogen orqali ya‘ni noaniq va ikki ma‘noli ifodalash an‘anaviy tarzda qabul qilinadi va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda muhim vosita sifatida baholanadi [Farxadova 2024: 390–395]. Shu bois yapon tilida *ちょっと, かな, かもしれ*

ない, と思います, ...が kabi ko‘p sonli modal iboralar mavjud bo‘lib, ular keng doirada ham norasmiy, ham rasmiy muloqotda faol ishlatiladi. Masalan, yoshi kattaroq suhbatdosh suhbat davomida “ね” yuklamasini yoki “ちょっと” so‘zini bir necha bor qo‘llab, suhbatdoshning his-tuyg‘ularini inobatga olayotganini bildirishi mumkin.

O‘zbek tilida ham shunga o‘xshash “deganday”, “bir oz”, “yaqqol emas” kabi ifodalar mavjud bo‘lsa-da, ularning xilma-xilligi va tizimlashgan nutqiy me‘yorlari darajasi yapon tiliga nisbatan cheklanishga ega.

Yapon va o‘zbek muloqot madaniyatlari o‘rtasidagi yana bir muhim farq bevositalikka va bilvositalikka bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi. Yapon muloqoti yuqori kontekstli (high-context) madaniyat turiga kiradi, ya‘ni ma‘lumotlarning ko‘p qismi to‘g‘ridan aytilmasdan, kontekst orqali anglashiladi. Bunga qarshi ravishda, o‘zbek muloqoti ba‘zi tadqiqotlarda past kontekstli (low-context) va bevosita nutqqa tayanadi [Qosimova 2020: 45–57].

Bu, albatta, barcha muloqot vaziyatlariga taalluqli emas: rasmiy uchrashuvlarda yoki katta yoshlilar bilan muloqotda o‘zbeklar ham yumshatuvchi, bilvosita ifoda shakllaridan foydalanadilar. Ammo kundalik muloqot, ayniqsa yaqin insonlar o‘rtasida, yapon tilida kuzatilgani kabi keng qamrovli ikki ma‘nolilik va yumshatuvchi ifodalardan kamroq foydalanish bilan farqlanadi.

Yapon muloqot madaniyatida esa hatto yaqin do‘stlar o‘rtasida ham xushmuomalalik va ehtiyotkorlik saqlanadi. Masalan, taklif yoki iltimosni rad etish zarur bo‘lgan holatda ham “今日はちょっと...” - “Bugun bir oz...” kabi yumshatuvchi konstruksiyalardan foydalanilib, ushbu turg‘un ibora qo‘llanilganda kontekstga qarab, biron-bir harakat yoki holatning noqulayligi yoki mumkin emasligi tushunilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, yapon va o‘zbek tillarida xushmuomalalik strategiyalari umumiy tamoyillarga tayansa-da, ularning amalga oshish usullari, nutqdagi ko‘rinishlari va qo‘llanish miqyosi o‘rtasida madaniy va kontekstual xususiyatlar tufayli muayyan farqlar kuzatiladi.

Yapon va o‘zbek tillaridagi xushmuomalalik strategiyalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda ham suhbatdosh yuziga tahdidni minimallashtirish asosiy maqsad sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikki tilda ham alternativ taklif qilish orqali muloqotda xushmuomala strategiyasi faol qo‘llanadi. Masalan, yapon rahbari: “この提案はちょっと難しいですが、別の方法を検討しましょう” - “Bu taklif biroz qiyinroq, lekin boshqa usulni ko‘rib chiqaylik”, deb muloqotni yumshatsa, o‘zbek rahbari: “Bu taklifning ayrim muammoli jihatlari bor. Yaxshisi, boshqa yechimni ko‘rib chiqsak”, deb tavsiya qiladi. Har ikki holatda ham muloqot avvalida muloyim tanqid, masalan, “qiyin” yoki “muammoli” deb baholash, so‘ngra birgalikda yechim qidirish taklifi ilgari suriladi. Bunday usul, suhbatdoshning o‘zini rad etilgandek emas, balki konstruktiv muloqot ishtirokchisi sifatida his qilishini ta‘minlaydi.

Farqli jihatlariga kelsak, yapon tilida morfologik va sintaktik darajada xushmuomalalikni ta'minlovchi maxsus vositalarning xilma-xilligi qayd etiladi. Masalan, -ましょうか *-masyoka* shakli bir vaqtning o'zida ham taklif, ham tayyorgarlikni ifoda etadi "qilsakmikan?" ma'nosida ko'p keladi. O'zbek tilida esa bunday grammatik yuklamalar nisbatan kam, yumshatuvchi ma'no asosan iltimos so'zlari "iltimos", "iloji bo'lsa" yoki kontekst orqali ta'minlanadi.

Madaniyatlararo pragmatik nuqtayi nazardan qaralganda, har ikki tilda ham xushmuomalalik muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Turli xalqlarda muloqot qadriyatlari farqli ekanini ta'kidlagan A. Vejbiskaya yapon madaniyatida *enryou* – *ehtiyotkorlik* va *aymay* – *noma'lumlik* ijobiy fazilatlar hisoblanishini e'tirof etgan [Wiezbicka 1991: 86]. O'zbek madaniyatida esa odob va hurmat kengroq qamrovga ega bo'lib, zarur hollarda to'g'ri fikrni ochiq ifodalash ham ijobiy baholanadi.

3-jadval

Yapon va o'zbek tillaridagi yumshatuvchi ifodalarning qiyoslanishi

Politness strategiyasi/ifoda turi	Yapon tilida	O'zbek tilida	Izoh (o'xshashlik/farq)
Pasaytiruvchi "bir oz" ifodasi	ちょっと (chotto)	bir oz, sal	Har ikki tilda ham "bir oz" so'zi kuchsizlantirish maqsadida qo'llaniladi. Yapon tilida ちょっと so'zida emotsional va kommunikativ ta'sir yuqoriroq.
Ehtimol/taxmin modal so'zlar	かもしれない (kamoshirenai)	balki, ehtimol	Ifodalar mazmuni o'xshash, noaniq taxmin bildiriladi. Yapon tilida gap oxirida, o'zbek tilida esa boshida yoki oxirida kelishi mumkin.
Shaxsiy fikr bildirish	～と思います (to omoimasu)	menimcha, ... deb o'ylayman	Har ikki tilda ham fikrni shaxsiylashtirish orqali muloqot yumshatiladi va muloyim tarzda taqdim etiladi.
Savol shaklida iltimos	～てくれませんか (...te kuremasen)	...- maysizmi?	Iltimosni inkor savol shaklida bildirish shakli kabi ikki til

	ka)		ham o'xshash funksiyaga ega.
Shart shaklida muloyim taklif	～たらどうですか (tara dō desu ka)	agar ... bo'lsa, yaxshi bo'lar edi	Ikki tilda ham shart mayli ifodasi bilan maslahat berish xushmuomalalikka kiradi. Yapon tilida ifoda qisqaroq, o'zbek tilida batafsilroq.
Jumla nihoyasida muloyim qarama-qarshilik	… ですが。 (...desu ga)	...-u, lekin ... (masalan, "edi-yu")	Yapon tilida jumla tugallanmay qolishi hurmatni ishora qiladi. O'zbek tilida ham shunday konstruksiya mavjud bo'lsa-da, kamroq ishlatiladi.
Subyektni tushirib qoldirish	Subyektsiz bayon	Olmoshsiz fe'l shakli	Yapon tilida subyektni ochiq aytmalik odatiy hol; o'zbek tilida fe'l shaxsni anglatgani uchun olmosh ko'pincha tushiriladi.
Efemizmlar	わ、ね、が、けど Yuklamalar, 死ぬ- 亡くなる / 病気になる- 体調を崩す so'z va iboralar	<i>Kasal bo'lmoq</i> – <i>sog'lig'ida muammo bo'lmoq</i> <i>O'lmoq</i> – <i>vafot etmoq</i>	Noxush yoki og'ir mavzularni muloyimlashtirish; Rad etish yoki tanqidni yumshatish; Kamtarlik va ehtiyotkorlikni namoyon qilish; Ijtimoiy haddan oshmaslikni ta'minlash.

Xulosa

Yapon va o'zbek tillarida xushmuomalalik strategiyalari asosan bir xil maqsad ziddiyat va yuzga tahdiddan qochish uchun xizmat qiladi. Ammo ularning amalga oshishdagi lingvistik mexanizmlari turlicha bo'lib, yapon tilida xushmuomalalik va noaniqlik nafaqat so'zlashuv uslubida, balki grammatik tizim darajasida ham mustahkam o'rin olgan. O'zbek tilida esa bunday mexanizmlar kamroq bo'lib, asosan vaziyat va kontekst talabiga muvofiq shakllanadi. Shuningdek, har ikki holda ham til vositalari orqali namoyon bo'luvchi xushmuomalalik belgilari keng madaniy qadriyatlar va ijtimoiy tamoyillar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rish mumkin.

Yapon va o'zbek tillari tahlili noaniqlik semantikasi muloqotda muhim kommunikativ vazifani bajaradigan omil ekanini ko'rsatdi.

Madaniyatlararo muloqot sharoitida bunday farqlarni anglash alohida ahamiyat kasb etadi. Bilvosita ifoda usuli va noaniqlik semantikasi har ikki tilda ham muloqot samaradorligini oshirish, ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirish va muomala madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Abdujalilova Sh. A., Fayziyeva N. N. O'zbek tilidagi xushmuomalalikning kategoriyalari // CAJMRMS. — 2025. — №3. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilidagi-xushmuomalalikning-kategoriyalari>
- Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987. — 345 p.
- Cianci M. 曖昧さ: A pragmatic research on Japanese ambiguity and politeness in invitations // Japón: Identidad. — 2017. — №III. — ISSN: 2254-8300. — URL: <https://dialnet.unirioja.es> / <https://cyberleninka.ru>.
- Diegoli E. A corpus-assisted analysis of indexical signs for (im)politeness in Japanese apology-like behaviour // Journal of Politeness Research. — 2024. — Vol. 20, №2. — P. 427–453. — DOI: 10.1515/pr-2022-0002. — URL: <https://www.degruyterbrill.com/document/doi/10.1515/pr-2022-0002>
- Фарходова Ш. Принцип вежливости в английской и узбекской речевой адаптации // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. — 2024. — Т. 2, №1/С. — С. 390–395. — DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp390-395>.
- Hasegawa, H. A Linguistic Introduction. — Berkeley: University of California, 2015. — 416 c.
- Ide S. Formal forms and discernment: Two neglected aspects of universals of linguistic politeness // Multilingua. — 1989. — Vol. 8, №2–3. — P. 223–248.
- Lakoff R. Language and Woman's Place. — New York: Harper & Row, 1975. — 296 p.
- Qosimova D. O'zbek tilida xushmuomalalik strategiyalarining ahamiyati // O'zbek tilshunosligi va madaniyati jurnali. — 2020. — T. 12, №3. — B. 45–57.
- Rinnert C., Kobayashi H. Requestive hints in Japanese and English // Journal of Pragmatics. — 1999. — Vol. 31, №9. — P. 1173–1201.
- Wierzbicka A. Cross-cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. — Berlin: Mouton de Gruyter, 1991. — 350 p.

References

- Abdujalilova, Sh. A., & Fayziyeva, N. N. (2025). CAJMRMS, No. 3, pp. available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilidagi-xushmuomalalikning-kategoriyalari> (accessed 02.09.2025) (In Uzb.)
- Brown, P., & Levinson, S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage, Cambridge, Cambridge University Press. (In Eng.)

- Cianci, M. (2017). Japón: Identidad, No. III, ISSN 2254-8300, available at: <https://dialnet.unirioja.es> / <https://cyberleninka.ru> (In Jap.)
- Diegoli, E. (2024). Journal of Politeness Research, 20(2), 427–453, <https://doi.org/10.1515/pr-2022-0002>, available at: <https://www.degruyterbrill.com/document/doi/10.1515/pr-2022-0002> (In Eng.)
- Farhodova, Sh. (2024). Zarbuzhnaya lingvistika i lingvodidaktika, 2(1/S), 390–395, <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp390-395> (In Rus.)
- Hasegawa, H. (2015). A Linguistic Introduction, Berkeley, University of California. (In Eng.)
- Ide, S. (1989). Multilingua, 8(2–3), 223–248. (In Eng.)
- Lakoff, R. (1975). Language and Woman's Place, New York, Harper & Row. (In Eng.)
- Kosimova, D. (2020). O'zbek tilshunosligi va madaniyati jurnali, 12(3), 45–57. (In Uzb.)
- Rinnert, C., & Kobayashi, H. (1999). Journal of Pragmatics, 31(9), 1173–1201. (In Eng.)
- Wierzbicka, A. (1991). Cross-cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction, Berlin, Mouton de Gruyter. (In Eng.)